



PUBLIC OVERSIGHT AS A FUNCTION OF CIVIL SOCIETY INSTITUTIONS

Dinara Arapbayeva

Associate Professor

Navoi University of Innovations

Navoi, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: public oversight; civil society institutions; openness; transparency; public expertise; monitoring; public administration; social activity.

Received: 02.12.25

Accepted: 03.12.25

Published: 04.12.25

Abstract: The article analyzes the role and significance of public oversight in the activities of civil society institutions. It highlights the importance of ensuring openness and transparency in public administration, strengthening citizens' participation in social processes, and integrating public needs into state policy through mechanisms of public control. The practical effectiveness of public hearings, monitoring, and expertise, as well as existing challenges and ways to address them, are examined on the basis of legal sources and scientific research. The results of the study demonstrate that public oversight, as an independent actor of civil society institutions, serves as an important democratic tool in governing society.

JAMOATCHILIK NAZORATI - FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING VAZIFASI SIFATIDA

Dinara Arapbayeva

Navoiy innovatsiyalar universiteti dotsent v.b

Navoiy, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: jamoatchilik nazorati; fuqarolik jamiyati institutlari; oshkoralik; shaffoflik; jamoatchilik ekspertizasi; monitoring; davlat boshqaruvi; ijtimoiy faollik.

Annatsiya: Maqolada jamoatchilik nazoratining fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatidagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Unda davlat boshqaruvida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, fuqarolarning ijtimoiy jarayonlarda ishtirokini kuchaytirish hamda

jamiyat ehtiyojlarini davlat siyosatiga integratsiya qilishdagi jamoatchilik nazorati mexanizmlarining o'рни yoritilgan. Jamoatchilik eshituvlari, monitoring, ekspertiza kabi shakllarning amaliy samaradorligi, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari yuridik manbalar hamda ilmiy tadqiqotlar asosida ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari jamoatchilik nazorati fuqarolik jamiyati institutlarining mustaqil subyekti sifatida jamiyat boshqaruvidagi muhim demokratik vosita ekanini ko'rsatadi.

ОБЩЕСТВЕННЫЙ КОНТРОЛЬ КАК ФУНКЦИЯ ИНСТИТУТОВ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА

Динара Арапбаева

*Доцента Навоийского университета инноваций
Навои, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: общественный контроль; институты гражданского общества; открытость; прозрачность; общественная экспертиза; мониторинг; государственное управление; социальная активность.

Аннотация: В статье анализируются роль и значение общественного контроля в деятельности институтов гражданского общества. Раскрывается его значение в обеспечении открытости и прозрачности государственного управления, усилении участия граждан в социальных процессах и интеграции общественных потребностей в государственную политику. На основе юридических источников и научных исследований рассматриваются практическая эффективность таких форм общественного контроля, как общественные слушания, мониторинг и экспертиза, а также существующие проблемы и пути их устранения. Результаты исследования показывают, что общественный контроль является важным демократическим инструментом и независимым субъектом управления обществом в системе институтов гражданского общества.

Kirish. Bugungi globallashuv va ochiq axborot makonida jamiyat hayotining barcha jabhalarida oshkoralik, javobgarlik va fuqarolarning qaror qabul qilish jarayonlarida ishtiroki tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishda, korrupsion xavflarni kamaytirishda va aholining davlat institutlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlashda

jamoatchilik nazorati markaziy o'rinni egallaydi. Mazkur institut demokratik qadriyatlar tizimining ajralmas qismi bo'lib, fuqarolarning faolligi, ongli pozitsiyasi va ijtimoiy mas'uliyatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil. Jamoatchilik nazorati — bu fuqarolarning, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa subyektlarining davlat organlari faoliyatini kuzatish, tahlil qilish va baholash jarayonidir. Ushbu mexanizm davlat hokimiyati va jamiyat o'rtasida “kechikmaydigan aloqa ko'prigi” bo'lib xizmat qiladi. Nazoratning mazmuni ikki asosiy jarayonga tayanadi: birinchidan, davlat organlarining faoliyati ochiqligini ta'minlash; ikkinchidan, hal etilishi lozim bo'lgan ijtimoiy-muhim muammolarni o'z vaqtida aniqlash [1].

Bugungi kunda jamoatchilik nazoratining subyektlari — jamoatchilik kengashlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, fuqarolik faollari, Qonunchilik palatasi huzuridagi jamoatchilik komissiyalari va mahalliy Kengashlar huzuridagi jamoatchilik guruhlarini hisoblanadi. Ushbu institutlar davlat organlarining qarorlar qabul qilish jarayonida aholining ehtiyoj va manfaatlarini inobatga olishga ko'maklashadi.

O'zbekistonda jamoatchilik nazorati institutini rivojlantirish bir necha normativ-huquqiy hujjatlar bilan mustahkamlangan. “Jamoatchilik nazorati to'g'risida”gi Qonun fuqarolarning davlat organlari faoliyati ustidan kuzatish olib borish huquqini huquqiy jihatdan kafolatlab beradi. Mazkur Qonun jamoatchilik eshituvi, jamoatchilik muhokamasi, jamoatchilik monitoringi, jamoatchilik ekspertizasi kabi mexanizmlarni aniq belgilab bergan. Ushbu huquqiy baza fuqarolik jamiyati institutlarining vakolatlarini kengaytirib, ularni davlat boshqaruvida real hamkor sifatida shakllantiradi.

Fuqarolik jamiyati institutlari jamoatchilik nazoratining asosiy “harakatlantiruvchi kuchi” hisoblanadi. NNTlar, fuqarolik faollari, yoshlar tashkilotlari, kasaba uyushmalari va mahalla tizimi davlat organlarining ijtimoiy siyosati, mahalliy budjet mablag'larining maqsadli sarflanishi, ekologiya, ijtimoiy himoya, sog'liqni saqlash va ta'lim sohalaridagi vazifalarini muntazam tahlil qilib boradi. Ushbu institutlar jamiyat manfaatlarini ifodalaydi, muammolarni ko'taradi, takliflar beradi va davlatga muqobil ijtimoiy fikrni yetkazadi [2].

Fuqarolik jamiyatining jamoatchilik nazoratida faol ishtiroki tufayli bir qator ijtimoiy muammolar o'z vaqtida ko'tarilmoqda: maktab va bog'chalarda ta'lim sifati, mahalla infratuzilmasi, yo'l va kommunal xizmatlar sifati, ekologik xavfsizlik kabi yo'nalishlar aholining o'zi tomonidan nazorat qilinmoqda. Aholining bevosita ishtiroki davlat siyosatining real hayotdagi natijadorligini aniqlashga yordam beradi [3].

Natijalar. Jamoatchilik nazoratining samarali ishlashi, avvalo, fuqarolarning ijtimoiy jarayonlarga ongli ravishda jalb qilinishiga bog'liq. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, zamonaviy

jamiyatda jamoatchilik nazorati nafaqat nazorat mexanizmi, balki fuqarolik yetukligini shakllantiruvchi ijtimoiy maktab vazifasini ham bajarmoqda. Aholining davlat organlari faoliyati, mahalliy budget sarfi, infratuzilma loyihalarining amalda bajarilishi bo'yicha berayotgan takliflari jamiyatda mas'uliyat va dahldorlik tuyg'usini kuchaytiradi. Ayniqsa, yoshlarning jamoatchilik tadqiqotlari, ekologik monitoring, turli ijtimoiy tashabbuslarda faol ishtiroki fuqarolik jamiyati institutlarini yanada mustahkamlaydi.

Jamoatchilik nazoratining rivojlanishida ommaviy axborot vositalarining roli alohida e'tiborga molik. Mustaqil tahliliy jurnalistika, faktcheking markazlari, fuqarolik jurnalistikasi platformalari davlat organlarining ishlashi yuzasidan ochiqlik ta'minlanishida kuchli vosita bo'lib xizmat qilmoqda. OAV orqali yoritilayotgan muammoli holatlar davlat tizimining tezkor choralar ko'rishiga turtki beradi. Shu jihatdan axboriy makon shaffofligi jamoatchilik nazoratining tarkibiy elementi sifatida baholanishi lozim. Axborotga erkin kirish huquqi esa har bir fuqaro uchun nazorat jarayonida teng imkoniyat yaratadi.

Bundan tashqari, jamoatchilik nazoratining samaradorligi ko'p jihatdan tashkilotlararo hamkorlik darajasiga bog'liq. Fuqarolik jamiyati institutlari, davlat organlari, biznes subyektlari va xalqaro tashkilotlarning o'zaro muvofiqlashgan harakati jamoatchilik nazorati mexanizmlarining sifatini oshiradi. Masalan, ekologik loyihalar bo'yicha jamoatchilik monitoringini amalga oshirishda NNTlar xalqaro ekologiya tashkilotlari metodologiyalaridan foydalanmoqda. Bunday hamkorlik amaliyotda aniq natija berayotganini so'nggi yillardagi ekologik holatni baholash bo'yicha jamoatchilik hisobotlaridan ko'rish mumkin [4].

Jamoatchilik nazoratining yana bir muhim yo'nalishi — mahalla tizimi orqali amalga oshiriladigan kuzatuv mexanizmlaridir. "Mahalla – jamiyatning tayanchi" tamoyiliga asoslanib, aholi muammolari eng mahalliy darajada aniqlanadi va davlatga yetkaziladi. Mahallaning hududiy imkoniyatlari, aholining bir-birini yaxshi bilishi jamoatchilik nazoratida yuqori aniqlik va tezkorlikni ta'minlaydi. Maktab, tibbiyot punktlari, yo'l va infratuzilma muammolari bo'yicha eng birinchi signal aynan mahalladan kelishi bejiz emas.

Shuningdek, jamoatchilik nazorati davlat boshqaruvida "hisobotlilik madaniyati"ni shakllantiradi. Davlat organlari faoliyatining samaradorligi faqat statsionar hisobotlar bilan emas, balki jamiyatga muntazam axborot berish, jamoatchilik savollariga javob qaytarish, rejalar va natijalar bo'yicha ochiq muloqotda ishtirok etish orqali baholanmoqda. Bu jarayon davlatning fuqaroga yaqinlashishiga, qarorlar qabul qilishda "yuqoridan pastga emas, pastdan yuqoriga" tamoyilining amalga oshishiga xizmat qiladi.

Zamonaviy tendensiyalar orasida raqamli jamoatchilik nazorati alohida o'rin tutadi. Onlayn petisiyalar, jamoatchilik portallari, raqamli monitoring platformalari, ochiq ma'lumotlar bazalari aholining nazorat imkoniyatlarini kengaytirib, an'anaviy mexanizmlar bilan integratsiya

qilinmoqda. Bozor narxlaridan tortib budjet loyihalarigacha bo'lgan ma'lumotlarning ochiqqlanishi jamoatchilik fikri shakllanishiga, shuningdek, korrupsion xavflar kamayishiga olib kelmoqda.

Jamoatchilik nazoratining yana bir muhim yo'nalishi — budjet jarayonlarining ochiqqligi. Bugungi kunda ochiq budjet amaliyoti dunyoning ko'plab mamlakatlarida davlat moliyasini boshqarishda jamoatchilik nazoratining asosiy omili sifatida qaralmoqda. O'zbekistonda ham "Ochiq budjet" portallari orqali mahalliy budjet loyihalarini muhokama qilish, jamoatchilik ovozi bilan loyihalarni moliyalashtirish imkoniyati kengaymoqda. Bu jarayon aholining real tashabbuslarini davlat siyosati bilan bog'lashga xizmat qiladi. Budjet mablag'larining maqsadli sarflanishini jamoatchilik tomonidan kuzatish natijasida o'zi yashab turgan hududda yo'l, maktab, bolalar bog'chasi, ichimlik suvi tarmoqlari kabi muammolarni hal qilish imkoniyati kuchayadi.

Bundan tashqari, jamoatchilik nazoratining samaradorligi ko'p jihatdan huquqiy madaniyat va huquqiy ong darajasi bilan belgilanadi. Agar jamiyatda fuqarolar o'z huquqlarini, nazorat mexanizmlarining qanday ishlashini bilsa, nazorat jarayonida qatnashish ko'lami keskin ortadi. Aksincha, bilim yetishmasligi jamoatchilik nazoratining sustlashuviga olib keladi. Shu sababli ta'lim tizimi, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyati institutlarining huquqiy madaniyatni oshirish bo'yicha hamkorlikdagi faoliyati jamoatchilik nazorati uchun muhim zamin yaratadi.

Jamoatchilik nazorati o'z navbatida ijtimoiy hamjihatlik va kollektiv mas'uliyat tamoyillarini mustahkamlaydi. Fuqarolar muayyan muammoni birgalikda muhokama qilganda, qarorlar ko'p tomonlama yondashuv asosida shakllanadi. Bu jarayonning o'zi fuqarolarning bir-birini eshitish, o'z fikrini asoslab berish va murosaga kelish madaniyatini shakllantiradi. Mazkur ko'nikmalar demokratik jamiyatning eng muhim belgilaridan sanaladi. Ayniqsa, mahalliy boshqaruvdagi jamoatchilik muhokamalari, infratuzilma yoki hudud rivoji bilan bog'liq loyihalarni tanlashda fuqarolarning o'zaro bahs-munozaralari jamiyatning ijtimoiy kapitalini mustahkamlaydi.

Xulosa va munozara. Jamoatchilik nazorati — fuqarolik jamiyati institutlarining eng muhim vazifalaridan biri bo'lib, u davlat boshqaruvining samaradorligi, ochiqqligi va javobgarligini ta'minlashga xizmat qiladi. Kuchli jamoatchilik nazorati mavjud jamiyatda ijtimoiy muammolar vaqtida aniqlanadi, davlat organlarining faoliyati doimiy tahlil ostida bo'ladi va jamiyat manfaatlari ustuvor tamoyilga aylanadi. Shuning uchun fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, huquqiy savodxonlikni oshirish, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini takomillashtirish davlatning uzoq muddatli barqaror taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jamoatchilik nazorati to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni. — Toshkent: Adolat, 2018. — 36 b.

2. Sattarov, A. Sh. Fuqarolik jamiyati institutlari va jamoatchilik nazorati mexanizmlari. – Toshkent: Istiqlol nashriyoti, 2019. – 184 b.
3. Ochilov, E. M. Fuqarolik jamiyati asoslari: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Innovatsiya, 2020. – 256 b.
4. Norton, A. Civil Society: Strengthening Participation. – London: Routledge, 2017. – 214 p.
5. Qodirov, B. Davlat boshqaruvida jamoatchilik ishtiroki va nazorat. // O‘zbekiston huquqshunosi. – 2021. – №3. – B. 42–50.
6. OECD. Open Government and Public Oversight Report. – Paris: OECD Publishing, 2020. – 145 p.
7. Karimov, I. Public Participation and Governance Transparency in Central Asia. – Geneva: UNDP Press, 2019. – 132 p.